



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-oktabr

576-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulkini xususiylashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-159-son Farmoni ijrosi haqida”gi 491-6-0-Q/24–sonli qarori to‘g‘risida

Xususiylashtirishni jadallashtirish va iqtisodiyotda xususiylashtirishning ulushini yanada oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulkini xususiylashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-159-son Farmoni va Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 491-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulkini xususiylashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-159-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 491-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-159-son Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

davlat aksiya paketlarini xorijiy investorlarga “Toshkent” RFB savdolari orqali xorijiy valyutada sotish va ular bo‘yicha to‘lovlarni shartnomada belgilangan valyutada amalga oshirish;

maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarining bosh rejasiga muvofiq, sanoat zonalarini infratuzilma bilan ta‘minlangandan va davlat qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingandan so‘ng ular hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman

hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov